

### EKOLOGIK O'YINLAR

Buxoro viloyati Peshko' tumani 19- DMTT

tarbiyachisi **Oripova Dildora Doniyorovna**

**Kalit so'zlar:** O'yin, ta'lif, mehnat, o'qish, ekologik madaniyat.

**Annotatsiya:** O'yin bola rivojlanishi uchun juda ham muhim o'ringa ega. Psixologlarning ta'kidlashicha bolalarning mukamal shakllanishi o'yin, ta'lif, mehnat, jarayonida sodir bo'ladi.

Maktabgacha yoshdag'i bolalarda esa bunday faoliyat o'yinlar va o'z navbatida rivojlantiruvchi o'yinlar o'z aksini topgan bo'lib o'ynash bolaning yetakchi faoliyati hisoblanadi. O'yin davomida bolalar kattalar tomongidan to'plangan o'ziga xos tajribaga ega bo'lishadi. O'yin faoliyatları bolani yanayam yuqori bosqichga –maktab bilimiga o'qishga o'qitishga har tomonlama yetuk qilib tayyorlab beradi. Maktabgacha yoshdag'i bolalar uchun o'yin bu birinchi navbatda- mexnat, o'yin bu – o'qish, o'yin bu- tarbiyaning eng samarali shaklidir. O'yinlar bolalarni quvnoqlik bilan to'ldiradi. Xar bir bola borki o'yinlarni o'zi bajarib qo'rishni maqul biladi va shunga oshiqadi. Aslida o'yin bu xaqiqatni aks etirish shaklidir. Rus olimi A.V.Zaporojtsning tadqiqotlariga ko'ra o'yin bola xarakatlari rivojlanishi uchun eng samarali usul.

Italiyalik o'qituvchi shifokor Mariya Montessorining so'zlariga ko'ra tarbiyachining bilvosita raxbarligi autodidaktizm asosida amalga oshiriladi. Bu shundan iboratki bolalar erkin bir faoliyatni tanlashadi ammo buni tarbiyachi xoxlagan tarzda bajaradilar. Montessori maktabgacha yoshdag'i bolalarni tarbiyalashda didaktik o'yinlardan keng foydalangan va bu o'yinlar ko'plab dunyo mamlakatlarida mashhurlikga erishgan bu didaktik va rivojlantiruvchi o'yinlar bolalarni tarbiyalashning yanada mukammal tizimini yaratishga asos bo'lgan.

Hozirgi kunda kreativ tarbiyachi o'yinli faoliyatdan keng foydalanib yangi yangi didaktik, rivojlantiruvchi o'yinlar. Ekologik o'yinlar izlab topishi va ulardan bolalar rivojlanishi uchun foydalanishi kerak shu bilan birga o'yinlarni bolaning o'zi tanlab o'zi bajarishiga imkon berish lozim bu orqali bolaning mayda qo'l motorikalari sezgilar, aqli, bilim olishga bo'lgan ko'nikmasi shakllanib boradi shunda bola uzini erkin his qiladi tengdoshlar va kattallar bilan yuqori ijtimoiy salohiyatda ishlaydi.

Eko so'zi joy – makon

Logiya o'rgan bolajon

Asra avayla uni

Yayra yashna xo'p inson

**O'yin nomi :** TABIATNI ASRA

**O'yindan ko'zlangan maqsad :** Bolalarni yer sharini, tabiatni asrab - avaylashga o'rgatish.

## Ilmiy elektron jurnali

**Kerakli jihozlar:** 1 ta yashnab turgan va bitta qurib borayotgan yer shari rasmlari va tabiatga foyda va zararli odatlar tasvirlangan rasmlar, stol.

**O`yin o`tadigan joy:** Sinf xonasi.

**O`yin borishi:** Tarbiyachi kartochkalar ichidan tabiatga zararli ofatlarni ko`rsatsa bola xafa bo`ldi deya xafa turgan tabiat rasmini, agar tabiatga faydalı rasm ko`rsatsa, xursand bo`ldi deya yashnab turgan rasmni ko`rsatadilar .

**O`yindan kutilgan natija:** Bolalar yaxshi- yomon odatlarni bilib olishlari va tabiatni sevish, uni himoya qilish ruhida tarbiyalash.

Ekolog himoyachi bolajon

Tayyormisiz har qachon

Sizga imkon beraman

O`ynab o`rganing chaqqon

**O`yin nomi:** BUNI KIM YARATDI?

**O`yindan ko`zlangan maqsad :** Bolalar tabiat jismlari va insoniyat tomonidan yaratilgan narsalarni ajratishni o`rganadi.

**Karakli jihozlar:** Mavzuga mos kartochkalar , turli yosh tabiat va insonlar tasvirlangan rasm.

**O`yin o`tadigan joy:** Sinf xonasi.

**O`yining borishi:** Boshlovchi “buni kim yaratdi?” deb savol bilan murojaat qiladi, bolalar rasmga qarab tog` rasmlini bo`lsa tabiat , kompyuter bo`lsa inson deb javab berishadi. O`yin shu tartibda davom etadi.

**O`yindan kutilgan natija:** Bolalar tabiatda bor yoki insoniyat yaratgan narsa-buyumlarni bilib olishadi.

**O`yin nomi:** YERDAMI OSMONDAMI?

**O`yin o`tkaziladigan joy:** Toza havoda , tabiat qo`ynida

**O`yindan kutilayotgan natija:** Bolalar tabiat jonzotlari , jismlari nomini bilib olishadi.

**O`yin borishi :** Boshlovchi bulut bolalar qo`llari bilan osmonni ko`rsatadilar daraxt bolalar yerga o`tirib olishadi va hokazo.....

**O`yindan kutilgan natija:** Bolalar diqqatini bir joyga jamlash , fikr yuritish qobiliyatları shakllanadi.

**O`yin nomi:** DARAXTDAMI POLIZDA

**O`yin o`tkaziladigan joy:** Sinf xonasi “Tabiat qo`yni”

**O`yindan ko`zlangan maqsad:** Bolalar meva va sabzavotlarni bir –biridan ajratishni o`rganishadi.

## Ilmiy elektron jurnali

**O`yin borishi:** Tarbiyachi GILOS desa bolalar daraxtdan meva terish harakatini bajaradi, tarbiychi TARVUZ desa bolalar yerga o`tirib polizdan uzish harakatini bajarishadi.

**O`yin nomi:** JONLI JONSIZ

**O`yin o`tkaziladigan joy:** Sinf xonasi “Tabiat qo`yni”

**O`yin borishi:** Tarbiyachi jonli tabiat, jonsiz tabiat jonzotlar, jismlar nomini aytadi jonli tabiat bo`lsa bolalar harakatlanadi, jonsiz tabiat jismlari bo`lsa bolalar o`tirib olishadi.

Eko belgilariga amal qiling albatta

O`rmonlarga o`t yoqmang

Suvni behuda ochmang

Baliqlarni ovlamang

Qushlarga ziyon bermang

**O`yin nomi:** EKO BELGILARNI YIG`AMIZ

**O`yin o`tkaziladigan joy:** Sinf xonasi

**O`yindan kutilayotgan natija:** Bolalar eko belgilarni nimani anglatishini bilib olishadi.

**O`yin borishi:** Ikki teng bo`laklarga bo`lingan eko belgilarni yig`adilar va u qanday belgili haqida gapirib beradilar.

Chiqindini qayta ishslash

Zavodiga yetkazgin

O`z o`rniga tashlab uni

Xizmatlarni yumshatgin.

Bolalar bilan kreativ tarbiyachi yana o`z qo`li bilan yaratgan ekologik ,

didaktik o`yinlarini o`ynab ularni ekologik bilimlarini mustahkamlab borsa maqsadga muvofiq bo`ladi.